



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

**1-jild
1-son
yanvar, 2026**

**January, 2026
Volume 1
Number 1**

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал**

**INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Кариш, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каришбоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DCs), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DCs), доцент

Бобоккулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)



Raqamli iqtisodiyot
Digital economy
Цифровая экономика



UDK: 338.43:330.341.1

<https://doi.org/10.70769/3030-315X.II.1.1.2026.5>

QISHLOQ XO‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

*Muxammadiyeva Dilafruz
Qurbonov Uralbek*

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА

*Мухаммадиева Дилафруз
Курбонов Уралбек*

IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF APPLYING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF AGRICULTURE

*Mukhammadieva Dilafruz
Kurbonov Uralbek*

Received: January 22, 2026 Revised: January 26, 2026 Accepted: January 21, 2026 Published: February 1, 2026

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy agrotekhnologiyalar, raqamli echimlar va innovatsion yondashuvlarning hosildorlik hamda iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirish bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы повышения эффективности использования инновационных технологий в развитии сельского хозяйства. В ходе исследования проанализировано влияние современных агротехнологий, цифровых решений и инновационных подходов на урожайность и экономическую эффективность. По результатам исследования сформулированы выводы и предложения по обеспечению устойчивого развития сельскохозяйственного производства.

Abstract. This article examines the issues of increasing the efficiency of using innovative technologies in the development of agriculture. The study analyzes the impact of modern agrotechnologies, digital solutions, and innovative approaches on productivity and economic efficiency. Based on the research results, conclusions and recommendations are proposed to ensure the sustainable development of agricultural production.

Kalit so‘zlar. Qishloq xo‘jaligi, innovatsion texnologiyalar, raqamli qishloq xo‘jaligi, hosildorlik, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish.

Ключевые слова. Сельское хозяйство, инновационные технологии, цифровое сельское хозяйство, урожайность, экономическая эффективность, устойчивое развитие.

Keywords. Agriculture, innovative technologies, digital agriculture, productivity, economic efficiency, sustainable development

■ KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi

sonining o‘sishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash hamda tabiiy resurslardan samarali foydalanish zarurati qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Shu jihatdan olganda,



innovatsion texnologiyalar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, hosildorlikni ko'paytirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish, ilg'or agroteknologiyalarni joriy etish va raqamli echimlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Tomchilatib sug'orish, aqlli qishloq xo'jaligi tizimlari, zamonaviy texnika va axborot texnologiyalarining tatbiq etilishi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonida ularning iqtisodiy samaradorligini baholash va amaliy natijadorligini oshirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi qishloq xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash hamda ularning ishlab chiqarish va iqtisodiy natijalarga ta'sirini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida nazariy va amaliy tahlil usullaridan foydalanilib, tegishli xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsiya tushunchasi qishloq xo'jaligi sohasida yangi texnika, ilg'or agroteknologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari va ilmiy yondashuvlarni amaliyotga joriy etishni anglatadi. Ushbu texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etishning asosiy maqsadi hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va sifatli mahsulot etishtirish bilan izohlanadi. Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, innovatsion texnologiyalar qishloq xo'jaligi subyektlarining bozor sharoitida raqobatbardoshligini kuchaytiradi hamda ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va resurslardan samarali foydalanish bilan bevosita bog'liq holda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahon va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda innovatsiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirish, mehnat unumdorligini ko'paytirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashning asosiy omili sifatida e'tirof etiladi.

Jumladan, J.Schumpeter innovatsiyalarni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilib, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu yondashuv qishloq xo'jaligi sohasida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Rogers (2003) tomonidan ishlab chiqilgan "Innovatsiyalarni tarqalishi nazariyasi"da qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarni qabul qilish jarayoni fermerlarning bilim darajasi, iqtisodiy imkoniyatlari va tashqi muhit omillari bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Muallifga ko'ra, innovatsion texnologiyalarning samaradorligi ularning nafaqat mavjudligi, balki amaliyotga joriy etilish darajasi bilan belgilanadi.

FAO va World Bank tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar, aniqlik bilan dehqonchilik (precision agriculture), aqlli sug'orish tizimlari va bioinnovatsiyalar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda hosildorlikni oshirishda muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Ushbu manbalarda innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali suv, er va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshishi ilmiy dalillar bilan asoslangan.

MDH va O'zbekiston olimlari tadqiqotlarida ham qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi keng yoritilgan. Jumladan, A. Vaxabov, Sh. Mustafakulov va U. Madrahimovlarning ilmiy ishlarida agroinnovatsiyalarni joriy etish qishloq xo'jaligi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili sifatida ko'rsatilgan. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish davlat qo'llab-quvvatlovi bilan uyg'unlashgan holda amalga oshirilishi zarur.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishga qaratilgan farmon va qarorlarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tarmoq samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar qishloq xo'jaligida ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish zarurligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, texnologik, iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy omillarni kompleks ravishda o'rganishni talab etadi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligini baholash masalalari etarlicha yoritilmagan bo'lib, mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini yanada oshiradi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qishloq xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish masalalarini o'rganishda ilmiy va amaliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy asoslarda keltirilgan yondashuvlar amaliy ma'lumotlar bilan taqqoslanib, innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholandi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida iqtisodiy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv hamda statistik kuzatuv usullari tanlandi. Ushbu usullar innovatsion texnologiyalarning hosildorlik, xarajatlar va foyda ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.



Shuningdek, mavjud ilmiy manbalar va tarmoqdagi amaliy tajribalar umumlashtirildi.

■TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish holati va ularning ishlab chiqarish samaradorligiga ta'siri iqtisodiy-tahliliy usullar asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi, ularning hosildorlik, ishlab chiqarish xarajatlari va resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'siri baholandi. Tadqiqot obyekti sifatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida innovatsion texnologiyalarni qo'llayotgan xo'jaliklar faoliyati olindi. Tadqiqot

predmeti esa innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish samaradorligi va iqtisodiy natijalarga ta'sirini ifodalovchi ko'rsatkichlardan iborat.

Amaliy tahlil va natijalar shuni kursatadiki qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarning amaliy qo'llanilishi hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot doirasida O'zbekistonning turli viloyatlaridagi fermer xo'jaliklari va korxonalari faoliyati o'rganildi. Asosiy e'tibor tomchilatib sug'orish, raqamli monitoring, aqlli texnika va biotexnologiyalar tatbiqining natijalariga qaratildi.

Hosildorlik va ishlab chiqarish xarajatlariga ta'siri quyidagi jadvalda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali hosildorlik va ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi farq ko'rsatilgan.

1-jadval

Hosildorlik va ishlab chiqarish xarajatlariga ta'siri

Texnologiya turi	Hosildorlik (s/ga)	Ishlab chiqarish xarajatlari (mln so'm/ga)	Foyda (mln so'm/ga)
An'anaviy usul	25	4,0	3,5
Tomchilatib sug'orish	32	3,5	6,0
Raqamli monitoring	34	3,8	6,5
Aqlli texnika	36	3,9	7,0
Biotexnologiyalar	38	4,0	7,5

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hosildorlikni 25–38 s/ga darajasiga oshiradi va foydani sezilarli darajada ko'paytiradi. Masalan, biotexnologiyalar qo'llanganda

hosildorlik an'anaviy usulga nisbatan 52% ga oshadi, foyda esa 114% ga ko'payadi. Bu, ayniqsa, qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishda innovatsiyalarning muhimligini tasdiqlaydi.

2-jadval

Mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligi

Texnologiya turi	Ishchi kuchi (kishi/ga)	Suv sarfi (m³/ga)	Mehnat samaradorligi indeksi
An'anaviy usul	3	1200	1,0
Tomchilatib sug'orish	2	800	1,8
Raqamli monitoring	2	850	1,7
Aqlli texnika	1	900	2,5
Biotexnologiyalar	2	1000	1,9

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion texnologiyalar mehnat sarfini kamaytiradi va suv resurslarini samarali ishlatishga yordam beradi. Masalan, aqlli texnika qo'llanganda mehnat samaradorligi an'anaviy usulga nisbatan 2,5 barobar oshadi.

Innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy va ekologik ta'siri bir nechta yo'nalishlarda seziladi. Iqtisodiy nuqtai nazardan qaranganda, ular ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, foydani ko'paytiradi va rentabellik darajasini yaxshilaydi. Ijtimoiy yo'nalishda innovatsiyalar bandlikni oshirishga va deyarli barcha darajada daromadlarni ko'paytirishga xizmat qiladi. Ekologik ta'sir jihatidan ular suv va er resurslarining samarali ishlatilishini ta'minlaydi, resurslar tejaladi. Shu bilan birga, texnologik yo'nalishda innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qiladi va yangi innovatsion tajribalarni rivojlantirishga imkon beradi.

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

■XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim va strategik omili ekanligini ko'rsatdi. Olib borilgan tahlillar innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini yaxshilash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

Shuningdek, innovatsion texnologiyalar samaradorligi ularni joriy etish darajasi, fermer xo'jaliklarining moliyaviy imkoniyatlari, bilim va malaka darajasi hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda innovatsion

Qarshi davlat texnika universiteti



yondashuvlarni joriy etish etarli darajada tizimli amalga oshirilmayotgani esa mazkur sohada hal etilishi lozim bo'lgan muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish jarayonida innovatsion texnologiyalardan kompleks va izchil foydalanish zarurligini asoslab beradi.

Olingan xulosalar asosida qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, resurs tejankor va raqamli texnologiyalarni qo'llayotgan fermer xo'jaliklari uchun soliq imtiyozlari va subsidiya tizimini kengaytirish maqsadga muvofiq.

2. Ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish, ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy ta'lim muassasalari va qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish zarur.

3. Innovatsion texnologiyalar samaradorligini baholashning yagona metodikasini ishlab chiqish, bunda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar kompleks tarzda hisobga olinishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, taklif etilgan chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish, tarmoqning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsent v.b. Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi / Qarshi davlat

texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrası dotsent v.b. Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi / **Muxammadiyeva Dilafruz Alisher qizi** – Acting Associate Professor of the Department of Innovative Economics, Karshi State Technical University.

daminov.da1996@gmail.com

0009-0008-3337-6203

2. Qarshi davlat texnika universiteti magistranti-Qurbonov Uralbek / Курбонов Уралбек – магистрант Каршинского государственного технического университета / Qurbonov Uralbek – Master's Student at Karshi State Technical University

qurbonovuralbek19752312@gmail.com

ORCID: 0009-0007-2826-9692

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qishloq xo'jaligini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.

2.O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi rasmiy ma'lumotlari.

3.Abdullayev A., Karimov B. **Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish.** – Toshkent, 2021.

4.Xolmatov M. **Agrosanoat majmuasida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari.** – Toshkent, 2020.

5.FAO. **Innovative Technologies in Agriculture.** – Rome, 2022.

6.World Bank. **Digital Agriculture and Sustainable Development.** – Washington, 2021.

7.Sharipov S. **Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar** // Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, 2022.

8.OECD. **Innovation, Productivity and Sustainability in Agriculture.** – Paris, 2020.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz